

**DAVLAT XARIDLARINING STRATEGIK YO'NALISHLARI ORQALI YASHIL
IQTISODIYOTNI RAG'BATLANTIRISH**

PhD Allayarov Suxrob

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-0565-3938

sukhrob.allayarov0826@gmail.com

Husenov Muhriddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0008-1052-6707

mukhriddinhusenov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola davlatning strategik yo'nalishlari orqali yashil iqtisodiyotni rag'batlantirish imkoniyatlarini o'rganadi, bunda xalqaro tajribalar hamda O'zbekistonning o'ziga xos sharoitlariga alohida e'tibor qaratiladi. Jahon miyisosida SDX barqaror innovatsiyalarni rivojlantirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishda samarali vosita sifatida o'zini oqlagan. Maqolada Yevropa Ittifoqi, OECD va BMT doirasidagi ilg'or tajribalar tahlil qilinadi va ular O'zbekistonning amaldagi xarid tizimi bilan solishtiriladi. Yashil siyosat yo'nalishida qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, SDXdan foydalangan holda barqaror rivojlanishga erishish hali ham cheklanganligicha qolmoqda. Maqola mavjud tizimdagagi asosiy bo'shilqlarni aniqlab, davlat xaridlарini yashil rivojlanish maqsadlariga moslashtirish uchun aniq va amalga oshiriladigan islohotlarni taklif etadi. SDXni samarali joriy etish orqali O'zbekiston ekologik innovatsiyalarni jadallashtirishi, yashil yo'nalishdagi kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashi, hamda Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) doirasidagi majburiyatlarini mustahkamlashi mumkin. Maqola ushbu o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy islohotlar, salohiyatni oshirish choralarini va moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, O'zbekiston, ekologik siyosat, davlat sektori innovatsiyasi, yashil davlat xaridlari, siyosat islohoti, barqaror davlat moliyasi.

**СТИМУЛИРОВАНИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ ЧЕРЕЗ СТРАТЕГИЧЕСКИЕ
ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ**

PhD Аллаяров Сухроб

Ташкентский государственный экономический университет

Хусенов Мухридин

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Это исследование посвящено тому, как стратегические государственные закупки (СГЗ) могут способствовать развитию зелёной экономики, с акцентом как на международный опыт, так и на специфику Узбекистана. На глобальном уровне СГЗ доказали свою эффективность в продвижении устойчивых инноваций и снижении негативного воздействия на окружающую среду. В работе анализируются лучшие практики Европейского союза, ОЭСР и ООН, а также проводится сравнение с действующей системой закупок в Узбекистане. Несмотря на прогресс в области

экологической политики, применение СГЗ в Узбекистане остаётся ограниченным. В статье выявляются ключевые пробелы и предлагаются практические реформы, направленные на приведение закупочной системы в соответствие с целями зелёного развития, открывая путь к устойчивому экономическому росту. Эффективная реализация СГЗ в Узбекистане может стимулировать экологические инновации, поддержать зелёные малые и средние предприятия и укрепить приверженность страны Целям устойчивого развития (ЦУР). В исследовании подчёркивается необходимость правовых реформ, развития потенциала и финансовых стимулов для успешного перехода.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, Узбекистан, экологическая политика, инновации в государственном секторе, зеленые государственные закупки, реформа политики, устойчивые государственные финансы.

STIMULATING THE GREEN ECONOMY THROUGH STRATEGIC PUBLIC PROCUREMENT

PhD Allayarov Suxrob
Tashkent State University of Economics
Husenov Muhriddin
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines how Strategic Public Procurement (SPP) can be used to stimulate the green economy, focusing on both global practices and the specific context of Uzbekistan. Internationally, SPP has proven effective in driving sustainable innovation and reducing environmental impacts. The study analyzes best practices from the EU, OECD, and UN frameworks, and contrasts them with Uzbekistan's current procurement system. Despite progress in green policy, Uzbekistan's use of SPP remains limited. This paper identifies key gaps and proposes actionable reforms to align procurement with green development goals, offering a pathway to sustainable economic growth. Effective implementation of SPP in Uzbekistan could catalyze environmental innovation, support green SMEs, and reinforce the country's commitments under the Sustainable Development Goals (SDGs). The research emphasizes the need for legal reforms, capacity building, and financial incentives to enable this transition.

Keywords: green economy, sustainable development, Uzbekistan, environmental policy, public sector innovation, green public procurement, policy reform, sustainable public finance.

Kirish.

Iqlim xavflarining kuchayishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va tabiiy resurslarga bo'lgan bosimning ortib borayotgan sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish zarurati jahon miqyosida dolzarb masalaga aylangan. Davlatlar, yirik iqtisodiy ishtirokchilar sifatida, bozorlarga ta'sir ko'rsatish va iste'mol modelini barqarorlik sari yo'naltirishda ulkan salohiyatga ega. Ularning qo'lida bo'lgan eng samarali vositalardan biri bu – davlat xaridlari bo'lib, OECD mamlakatlarida YAIMning o'rtacha 13 foizini tashkil etsa, rivojlanayotgan davatlarda bu ko'rsatkich undan ham yuqoriq bo'lishi mumkin. Strategik yondashuv orqali davlat xaridlari barqaror mahsulot va xizmatlarga talabni shakllantirishi, ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishi va sanoat tarmoqlarini atrof-muhitga moslashishga undashi mumkin. Bu jarayon "Yashil davlat xaridlari" (YDX) nomi bilan tanilib, an'anaviy xarid amaliyotlaridan farqli o'laroq, narx emas, balki qiymatga asoslangan, ya'ni mahsulotning butun hayotiy davri, iqlimga ta'siri va ekologik tashqi omillarni hisobga olgan holda qaror qabul qilishni nazarda tutadi.

Xalqaro miqyosda YDXning ahamiyati OECD Davlat xaridlari bo'yicha tavsiyalari, Yevropa Ittifoqining YDX mezonlari va Parij kelishuvi kabi hujjalalar orqali tan olingan. Ular hukumatlarning yashil o'tishda yetakchi bo'lish majburiyatini alohida ta'kidlaydi. Italiya, Niderlandiya va Litva kabi mamlakatlar YDXni milliy strategiyalar, huquqiy majburiyatlar va

salohiyatni oshirish choralariga asoslangan holda iqtisodiyotning turli sohalariga tatbiq etib, muvaffaqiyatlari misollarni namoyon etmoqda. Biroq, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda, YDXni amaliyotda to'liq joriy etish yo'lida hali ham sezilarli to'siqlar mavjud — bular qatoriga normativ-huquqiy to'siqlar, xarid mutasaddilarining ekologik bilimlar yetishmasligi, ekologik samaradorlik bo'yicha ma'lumotlarning kamligi va yashil mahsulotlar qimmatroq degan noto'g'ri qarashlar kiradi.

Aynan shunday sharoitda O'zbekiston muhim bosqichda turibdi. Keng qamrovli rivojlanish kun tartibi va barqarorlikka bo'lgan e'tibor ortib borayotgan bir paytda, yashil xaridlarni davlat siyosatiga integratsiya qilish yashil o'sishni jadallashtirishda kuchli katalizator bo'lishi mumkin. Biroq, amaldagi davlat xaridlari tizimi hali ekologik ustuvorliklarni to'liq aks ettirmaydi. Ushbu maqola O'zbekistonning milliy sharoitlariga moslashtirilgan strategik yashil xarid tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun xalqaro ilg'or tajribalarni o'rghanadi. Global tajribani mahalliy real holat bilan uyg'unlashtirish orqali, maqola O'zbekistonning davlat xaridlari tizimini barqaror rivojlanish va iqlim barqarorligi maqsadlariga moslashtirishga xizmat qiluvchi aniq, amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yigirma yil ichida Strategik Davlat Xaridlari (SDX) tushunchasi sezilarli darajada rivojlanib, faqat xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan texnik funksiyadan ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik maqsadlarga xizmat qiluvchi muhim siyosiy vositaga aylana boshladi. OECDning 2024-yilda chop etilgan "Yashil transformatsiyada davlat xaridlardan foydalanish" nomli hisobotida bu sohadagi eng keng qamrovli tahlillardan biri taqdim etilgan bo'lib, 38 mamlakatda o'tkazilgan so'rov natijalariga asoslanadi. Hisobotga ko'ra, ushbu mamlakatlarning 92 foizi Yashil Davlat Xaridlari (YDX) bo'yicha milliy huquqiy asos yoki siyosiy strategiyalarni ishlab chiqqan bo'lib, ularning aksariyati bu tashabbuslarni Parij kelishuvi va Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) kabi kengroq ekologik majburiyatlar bilan bog'lagan. Biroq, ushbu hujjat shuni ham ko'rsatadiki, ko'plab mamlakatlarda rasmiy siyosatlar mavjud bo'lishiga qaramay, YDXning samarali joriy etilishini ta'minlaydigan monitoring tizimlari, professional tayyorgarlik dasturlari yoki hayotiy davr tahliliga asoslangan baholash vositalari hali to'liq shakllanmagan (Bouwer, Jonk, & other, 2006).

Ilmiy adabiyotlar YDXni innovatsiyalar va barqarorlikni rag'batlantiruvchi kuchli vosita sifatida e'tirof etadi, ayniqsa hukumatlar infratuzilma, energetika va transport kabi sohalarda yirik iste'molchi sifatida faol ishtirok etganda (Testa va boshq., 2016; Lember va boshq., 2014). BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP, 2022) va Jahon banki (2021) hisobotlarida ta'kidlanishicha, YDX yashil mahsulotlarga bo'lgan bozor talabini oshiradi va xususiy sektorni ekologik jihatdan maqbul texnologiyalarga sarmoya kiritishga undaydi. Shuningdek, bu manbalar aniq huquqiy talablar, davlat organlari o'rtasida muvofiqlashtirish va yetkazib beruvchilar bilan erta bosqichlarda aloqalar o'rnatish — YDXning muvaffaqiyatlari amalga oshirilishidagi hal qiluvchi omillar ekanini qayd etadi.

Biroq, McCrudden (2004) va Bouwer va boshqalar (2006) kabi tadqiqotchilar rivojlanayotgan davlatlarda yashil mezonzlarni xarid amaliyotlariga integratsiya qilishda duch kelinadigan institutsional va psixologik to'siqlarga e'tibor qaratgan. Bular qatoriga bo'lingan va nomuvofiq normativ-huquqiy bazalar, ishonchli ma'lumotlarning yetishmasligi, xarid mutasaddilarining ekologik xabardorligi pastligi hamda yashil mahsulotlarning narxi baland yoki takliflar cheklangan bo'lishi mumkinligi haqidagi xavotirlar kiradi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yashil davlat xaridlari (YDX) hozirgi kunda barqarorlikni ilgari surish, chiqindilarni kamaytirish va yashil innovatsiyalarni rag'batlantirish maqsadida hukumatlar foydalanayotgan asosiy siyosiy vositaga aylangan. OECD mamlakatlarida davlat xaridlari YAIMning o'rtacha 13 foizini (ba'zi davlatlarda 20% gacha) tashkil etishini inobatga olsak, hukumatlar katta bozor

ta'siriga ega. Xaridlarni strategik yo'naltirish orqali ekologik toza mahsulot va xizmatlarga talab yuzaga keltiriladi, past-uglerodli innovatsiyalar qo'llab-quvvatlanadi hamda sanoat barqaror amaliyotlar sari yo'naltiriladi. So'nggi o'n yillikda bu yondashuv YDX ni chekka siyosiy g'oyadan iqtisodiy va iqlim siyosatining muhim tayanchiga aylantirdi.

2024-yilda OECD tomonidan 38 davlatda o'tkazilgan so'rov natijasiga ko'ra, ularning 92 foizi YDX bo'yicha milliy strategiyani qabul qilgan, 76 foizi (29 davlat) esa uni iqlim yoki ekologik siyosat hujjatlariga integratsiya qilgan. Bu davlat xaridlari boshqaruvining tub o'zgarishini ifodalaydi: oddiy xarid operatsiyalaridan jamoaviy qadriyat yaratuvchi mexanizmgacha. Shu bilan birga, 63 foiz mamlakatlarda ayrim mahsulot yoki xizmatlar toifasi bo'yicha YDX talablarini majburiy etib belgilagan — ya'ni ekologik mezonlar ixtiyoriy emas, balki huquqiy majburiyatga aylangan.[5]

Buyuk Britaniyada 2021-yildan boshlab yillik qiymati 5 million funtdan yuqori bo'lgan markaziy hukumat kontraktlariga taklif beruvchi yetkazib beruvchilar "Karbon kamaytirish rejalar"ni taqdim etishi shart. Ular Scope 1 va 2, shuningdek, ayrim Scope 3 chiqindilari bo'yicha ma'lumotlarni ochiqlashi, bu esa Britaniyaning 2050-yilgi "nol emissiya" maqsadi bilan uyg'unlashadi. Ushbu siyosat yuqori qiymatdagi xaridlar uchun ekologik majburiyatli kompaniyalarni ajratib olishga xizmat qiladi va davlat-xususiy sheriklikni ekologik javobgarlik mezonini orqali qayta talqin qiladi.

Kanadaning "Hukumatni yashillashtirish strategiyasi"da esa xarid faoliyati atrof-muhit maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'langan. 2030-yilgacha federal hukumat tomonidan xarid qilinadigan barcha yengil avtomobillar nol-emissiyali bo'lishi lozim, 2050-yilgacha esa barcha federal operatsiyalar nol chiqindilar darajasiga erishishi ko'zda tutilgan. Ushbu maqsadlar "Hukumatni yashillashtirish markazi" tomonidan ishlab chiqilgan yagona siyosat va baholash tizimi orqali boshqariladi, bu esa markazlashgan boshqaruvening rolini ko'rsatadi.

Italiya esa aniq mezonlar asosidagi yondashuvni namoyon qiladi. "Criteri Ambientali Minimi" (Minimal Ekologik Mezonlar – CAM) mamlakat bo'ylab barcha hukumat darajalarida 20 dan ortiq toifa bo'yicha majburiy qo'llaniladi (qurilish, yoritish, ovqatlanish, transport va boshqalar). Bu mezonlar Italiya Ekologiya vazirligi va ekspert guruhlari tomonidan ishlab chiqiladi. CAM'ning huquqiy kuchga ega bo'lishi YDXni siyosiy niyatdan amaliy tartibga aylantirgan.

Litva esa tezkor institutsional islohotning yorqin misolidir. 2020-yilda davlat xaridlarining atigi 3 foizi yashil mezonlarga ega bo'lgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 59,7% ga yetdi. Shuningdek, barcha xarid protseduralarining 32,6% yashil talablarni o'z ichiga olgan. Bu natijalar milliy YDX yo'l xaritasi, real vaqt ma'lumot panellari va davlat xaridchilari hamda yetkazib beruvchilarga qaratilgan informatsion ishlar orqali qo'lga kiritildi.

Niderlandiyada esa "Ijtimoiy mas'uliyatli xaridlar manifesti" orqali desentralizatsiyalashgan yondashuv qo'llaniladi. 170 dan ortiq davlat agentligi o'zining SDX rejasini ishlab chiqishga majbur bo'lgan. 2015-yildan 2020-yilgacha barqarorlik mezonlaridan foydalangan tenderlar ulushi 39% dan 49% gacha oshgan, barqarorlik mavzularida bozor maslahatlari esa 18% dan 46% gacha ko'tarilgan. Bu model erkinlik va moslashuvchanlikni saqlagan holda milliy ko'rsatkichlar va tajriba almashinuvi orqali uyg'unlik yaratadi.

Yuqori samarador tizimlarga xos bo'lgan umumiyl jihatlardan biri – salohiyatni rivojlantirishdir. Fransiya, Koreya va Kosta-Rika kabi davlatlarda SDX bo'yicha o'quv dasturlari, elektron platformalar va maslahatchi markazlar yo'lga qo'yilgan. Masalan, Kosta-Rikaning SDX portalini andoza hujjatlar, o'quv materiallari va real vaqt monitoring imkoniyatlarini taqdim etadi. Fransiyaning milliy xarid agentligi esa xaridchilarga hayot davri qiymatini baholovchi (LCC) usullarni qo'llashda yordam beradi.

Shunga qaramay, ko'pchilik tizimlarda asosiy kamchilik – ta'sirni baholash mexanizmlarining yo'qligidir. Garchi aksariyat davlatlarda SDX siyosati mavjud bo'lsa-da, uglerod chiqindilarining kamayishi tizimli tarzda o'lchab borilmaydi. Bu borada Irlandiya va Islandiya kamdan-kam ilg'or tajribalarni namoyish qilmoqda. Irlandiyada 2009-yildan buyon

energiya samaradorligi 34% ga oshgan va 6 million tonna CO₂ qisqartirilgan, bu esa 1,8 milliard yevro tejashga olib kelgan. Islandiyada esa "Yashil qadamlar" dasturi 200 ta milliy agentlikdan 178 tasini qamrab olgan bo'lib, ularning barchasi ekologik hisobotlar, yashil buxgalteriya va resurslarni tejash choralarini amalga oshirmoqda.

Yashil xaridlar samarador bo'lishi uchun faqat tartib va hujjatlar emas, balki institutlar salohiyati, raqamlar infratuzilma, bozor tayyorgarligi va monitoring tizimlari zarur. Faqat shu omillar uyg'unligida SDX iqlim siyosati, iqtisodiy transformatsiya va davlat boshqaruvi samaradorligi uchun real vositaga aylanishi mumkin.

Yangi YDX tendensiyalaridan muhim xulosalar:

- Sun'iy intellekt (SI) yordamida tahlil: Germaniya va Janubiy Koreya SDX takliflaridagi ekologik moslikni baholash va "yashil yuvish" holatlarini aniqlash uchun SI vositalarini sinovdan o'tkazmoqda.

- Pre-commercial xaridlar: Finlyandiya va Shvetsiya davlat talabi asosida yashil R&D sohalarini (biomateriallar, aqli energiya tizimlari) rivojlantirish uchun xaridlarni jalb qilmoqda.

- Iqlimga bog'langan moliyaviy vositalar: Fransiya yashil davlat obligatsiyalari ko'rsatkichlarini SDX indikatorlariga bog'lab, moliyaviy hisobotlar va ESG standartlariga integratsiya qilishni boshlagan.

- Aylanma xarid talablari: Daniya va Belgiya davlat qurilish shartnomalarida materiallar qayta ishlanishi va foydalanish imkoniyatini talab qilmoqda.

- Mintaqaviy xarid ittifoqlari: Shimoliy Kengash va Yevropa Yashil Kelishuvi doirasidagi ishchi guruhlar transmilliy SDX platformalarini shakllantirib, past-uglerodli yechimlarga umumiy talab yaratmoqda.

Xalqaro miqyosda Yashil Davlat Xaridlari (YDX) tobora chuqurroq siyosiy yondashuvlar, institutsional salohiyat va iqlim rejalashtirishining integratsiyalashuvi bilan rivojlanayotgan bir paytda, O'zbekistonning davlat xaridlari tizimi atrof-muhit barqarorligini xarid jarayonlariga tatbiq etish borasida hali dastlabki bosqichda qolmoqda. Mamlakat uzoq muddatli iqtisodiy modernizatsiya va yashil o'tish siyosatini amalga oshirar ekan, davlat xaridlarni ekologik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish katta, ammo hali to'liq ishga solinmagan imkoniyatni taqdim etadi.

Hozirda O'zbekistonda davlat xaridlari 2021-yilda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonun samaradorlik, shaffoflik va raqobat kabi umumiyligi prinsiplarni belgilaydi. Biroq, ekologik mezonlar hali qonunchilik, me'yoriy hujjatlar yoki amaliyotga tizimli ravishda kiritilmagan. Prezidentning 2019–2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"ni tasdiqlovchi 4477-sonli farmoni energetika, transport, qurilish va qishloq xo'jaligi kabi sohalarda barqaror rivojlanish uchun kuchli konsepsiyanı belgilagan. Ammo bu strategiya davlat xaridlari tizimi orqali amaliy mexanizmlar bilan hali to'liq joriy etilmagan. [6]

YDX bo'yicha rasmiy mezonlar yoki milliy ko'rsatmalar mavjud emasligi jiddiy bo'shlqnini yuzaga keltiradi. Davlat xaridlarda ekologik talablarga, umrbod xarajatlar tahliliga yoki energiya samaradorligi, chiqindilar yoki materiallarning barqarorligi bo'yicha minimal talablar kamdan-kam hollarda kiritiladi. Shuningdek, buyurtmachilar ekologik jihatdan qulay yechimlarni tanlash yoki ularni ustuvor deb baholashga majbur emas. Bu esa davlat bozorlarida yashil innovatsiyalarni rag'batlantirish imkonini cheklaydi va yetkazib beruvchilarda barqaror mahsulotlar taklif qilishga hech qanday bosim yoki motivatsiya yo'qligini anglatadi.

Institutsiyonal jihatdan O'zbekiston barqaror rivojlanishda davlat xaridlarning rolini tan olish yo'lida dastlabki qadamlarni qo'ydi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi xaridlar islohotlari va raqamlashtirish uchun mas'ul hisoblanadi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi esa ekologik tartibga solish bilan shug'ullanadi. Ammo bu ikki organ o'rtaida YDXni amalga oshirish uchun rasmiy muvofiqlashtirish mexanizmi mavjud emas. Bunday bo'linish

umumiylar ustuvor yo'nalishlarni belgilash, texnik salohiyatni shakllantirish va ekologik natijalarni monitoring qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Infratuzilma nuqtai nazaridan, yaqinda ishga tushirilgan dxarid.uz elektron platformasi shaffoflik va samaradorlikni oshirishda muhim qadam bo'ldi. Biroq, hozircha bu platforma ekologik mezonzlarni qo'llash, CO₂ ta'sirini kuzatish yoki yashil yetkazib beruvchilarni ro'yxatdan o'tkazish funksiyalariga ega emas. [7] Taqqoslash uchun, Litva va Koreya kabi davlatlar raqamli xarid tizimlariga ekologik filtrlash va tahlil imkoniyatlarini kiritib, avtomatik moslik tekshiruvlari va real vaqtli YDX ko'rsatkichlarini monitoring qilishni yo'lga qo'ygan.

Bozor jihatidan esa O'zbekistonda yashil mahsulotlar va xizmatlar taklif qiluvchi yetkazib beruvchilar bazasi hali shakllanmagan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar — masalan, ekologik qurilish materiallari, energiya tejamkor texnologiyalar yoki chiqindilarni boshqarish bo'yicha yechimlar taklif qiluvchilar — davlat xaridlarida ishtirok etishda rag'batlar yoki qulay baholash tizimlari yo'qligi tufayli qiyinchiliklarga duch keladi. Bundan tashqari, ko'plab davlat xaridchilari barqaror yechimlarni qimmatroq yoki murakkab deb hisoblaydi, bu esa YDX bo'yicha yetarli bilim va malaka yetishmasligini ko'rsatadi. Bu muammolar YDXni endi boshlayotgan davlatlarga xos bo'lsa-da, O'zbekistonga moslashtirilgan yondashuvlarni talab qiladi.

Yana bir muhim to'siq — davlat xaridchilari uchun YDX bo'yicha treninglar va xabardorlik dasturlarining yo'qligi. Fransiya va Kosta-Rika tajribasida markazlashgan trening platformalari va onlayn ta'lim markazlari YDXni keng joriy etishda muhim rol o'ynagan bo'lsa, O'zbekistonda bu borada institutsional yondashuv shakllanmagan. Aksariyat xaridchilari xarid qiymatini eng past narx asosida baholaydi, ekologik foyda yoki umrbod qiymat tahlili esa e'tiborga olinmaydi. [8]

Shunga qaramay, O'zbekiston strategik YDX tizimiga o'tishga tayyor ekanini ko'rsatadigan bir qator ijobjiy omillar mavjud. Hukumatning Parij bitimi doirasida yangilangan Milliy belgilangan hissalar (NDCs) orqali 2030-yilgacha issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga qisqartirish maqsadi siyosiy irodani namoyon etadi. Bunday maqsadlarga faqat soliq va tartibga solish vositalari bilan emas, balki YDX orqali ham erishish mumkin. Bundan tashqari, Jahon banki, BMTTD, OTB va GIZ kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik texnik yordam va pilot loyihalar orqali barqaror xarid amaliyotlarini joriy etishda asos bo'la oladi. [9]

Ayrim tarmoqlarda dastlabki pilot tashabbuslar allaqachon boshlangan. Xususan, xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan moliyalashtirilayotgan jamoat binolarini rekonstruksiya qilish loyihalarida energiya samaradorligi talablariga rioya qilinmoqda. Ba'zi shahar hokimliklari chiqindilarni yig'ish va suv resurslarini boshqarishda yashil yechimlarni sinovdan o'tkazmoqda. Ammo bu amaliyotlar hali davlat xaridlari siyosatiga tizimli ravishda tatbiq etilmagan.

O'zbekiston xalqaro amaliyotlar va milliy real voqeliklar o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun YDX bo'yicha milliy yo'l xaritasini ishlab chiqishni ustuvor vazifa qilib belgilashi kerak. Bu huquqiy o'zgartirishlar, davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish va donorlar ko'magidagi salohiyatni oshirish dasturlari bilan qo'llab-quvvatlanishi zarur. Qurilish, transport va ofis uskunlari kabi muhim sohalar uchun minimal ekologik mezonzlarni joriy qilish orqali boshlash mumkin. Keyinchalik yanada murakkab toifadagi xaridlarga kengaytirilishi mumkin. Bundan tashqari, xaridlarni monitoring qilish vositalariga YDX ko'rsatkichlarini integratsiyalash orqali shaffoflikni oshirish, ijtimoiy mas'ul yetkazib beruvchilarni jalb qilish va ekologik natijalarni yaxshilash mumkin bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Strategik davlat xaridlari butun dunyo bo'ylab ekologik maqsadlarni ilgari surish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda samarali vosita sifatida o'zini namoyon qilgan. Ko'plab Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT)ga a'zo mamlakatlar yashil davlat xaridlarini (YDX) qonunchilik, raqamli vositalar va salohiyatni oshirish tizimlari orqali institutsional darajaga

olib chiqqan bo'lsa-da, O'zbekiston hali xarid amaliyotlariga barqarorlik tamoyillarini joriy etishda boshlang'ich bosqichda turibdi. Ekologik mezonlarning yo'qligi, davlat idoralari o'rtasidagi cheklangan hamkorlik va xaridchilarning xabardorlik darajasining pastligi asosiy muammolar sifatida ko'rilmoxda. Shunga qaramay, O'zbekistonning yashil o'sishga nisbatan qat'iy siyosiy yondashuvi hamda so'nggi yillardagi raqamli va normativ islohotlari YDX rivoji uchun mustahkam asos yaratmoqda.

Agar O'zbekiston xalqaro ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirilgan, bosqichma-bosqich va ma'lumotlarga asoslangan yondashuvni qabul qilsa, davlat xaridlarini innovatsiyalar, barqarorlik va iqlim yetakchiligining harakatlantiruvchi kuchiga aylantira oladi. Oldinga qarab, milliy siyosatda qonunchilikni takomillashtirish, institutsional hamkorlikni kuchaytirish va salohiyatni oshirish barqarorlikni davlat sektorida qaror qabul qilishning ajralmas qismi sifatida joriy etishning asosiy ustuvor yo'naliishlari bo'lishi lozim.

Adabiyotlar / Jumeepamypa/Reference:

Bouwer, M., Jonk, M., Berman, T., Bersani, R., Lusser, H., Nissinen, A. and Viganò, C., (2006). Green public procurement in Europe 2006: Conclusions and recommendations. *Virage Milieu & Management*.

European Commission, (2021). Public Procurement Strategy. [online] Available at: <https://ec.europa.eu> [Accessed 28 April 2025].

Lember, V., Kattel, R. and Kalvet, T., (2014). How governments support innovation through public procurement: Comparing evidence from 11 countries. *Journal of Innovation: Management, Policy & Practice*, 16(1), pp.30–49.

McCradden, C., (2004). Using public procurement to achieve social outcomes. *Natural Resources Forum*, 28(4), pp.257–267.

OECD, (2024). Harnessing Public Procurement for the Green Transition: Good Practices in OECD Countries. Paris: OECD Publishing. Available at: <https://www.oecd.org> [Accessed 28 April 2025].

Republic of Uzbekistan, (2019). Strategy for Transition to a Green Economy 2019–2030. Decree No. PP-4477 of the President of the Republic of Uzbekistan.

Republic of Uzbekistan, (2021). Law on Public Procurement. Law No. ZRU-684.

United Nations Development Programme (UNDP), (2022). Green Public Procurement in Developing Countries: Opportunities and Challenges. UNDP Publications.

World Bank, (2021). Green Public Procurement: An Overview of Global Practices. Washington, D.C.: World Bank Group.